

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI FAKULTETI

“G'AZNACHILIK ISHI” KAFEDRASI

JUMANAZAROV AKROM XO'JANAZAR O'G'LI

**«IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA
BUDJET DAROMADLARINI SHAKILLANTIRISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH»**

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«G'aznachilik ishi»

kafedra mudiri

_____ f.prof. Z.X.Karimova

«_____» _____ 2013

Bitiruvchi :

5341700 -“G'aznachilik ishi”- ta'lim yunalishi

4 -kurs talabasi

Jumanazarov Akrom Xo'janazar o'g'li

Ilmiy rahbar:

k.o'q. Toshmuxamedova

Dildora Asqarbekovna

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
1-BOB.DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRILISHNING NAZARIY ASOSLARI	8-33
1.1 Davlat budjeti daromadlarining mazmuni, mohiyati va shakllantirilishining tamoyillari.....	8-23
1.2 Budjet daromatlari shakllaishida soliq mexanizmining ahamiyati.....	23-33
II-BOB. O'ZBEKISTONDA BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIYATI.....	34-54
2.1 Budjet daromadlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili.....	34-47
2.2 Budjet soliqli daromatlari shakllanishi amaliyoti.....	47-54
III-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	55-71
3.1 Budjet daromadlarini shakllantirishda soliq yukini optimallashtirish masalalari	55-63
3.2 Hozirgi sharoitda budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish.....	64-71
XULOSALAR	72-73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	74-76

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga budget daromadlarini shakllantirish mexanizmi, xususan budget daromadlarini shakllantirish darajasini qay holatda bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda, dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat qarzining ortib borishi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotgan bir sharoitda, O'zbekistonimiz chetdan qarz olish bo'yicha puxta o'ylangan siyosat olib borishi natijasida davlatimiz qarz hajmining ulushini nisbatan past darajada ushlab qolishga va o'z majburiyatlariga to'liq javob beradigan mamlakat sifatida barqaror obro'e'tiborini saqlab qolishga erishdi"*¹. Mamlakatda soliq yuki aholining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini cheklashi yoki rag'batlantirishga erishishi mumkin.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida bozor mexanizmlarining barcha elementlari mukammal ishlashi, aynan shu yo'nalishda soliqlarning o'rni va soliq mexanizmining mukammalligiga ham ko'riladigan samara darajasi bevosita bog'liqdir. Jahon tajribasidan ma'lumki, soliqlar davlatning iqtisodiy asosi bo'lishi bilan birgalikda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini tartibga soluvchi va kafolatlovchi dastaklardan biridir. Chunonchi, mamlakatimiz Prezidentimiz I.A.Karimov "...O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida haliberi saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, ... davlat budgetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan

¹ Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2013 yil 21 yanvar.

profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi.”² deb ta’kidladilar.

Byudjet daromadlarining juda katta qiyinchiliklar evaziga shakllantirilayotganligi, hamma vaqt ham budjet mablag’laridan oqilona foydalanilmayotganligi, budjet defitsiti darajasini belgilangan me’yorlar darajasida ushlab turishning zarurligi, budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishning muhimligi mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishi mavzusining asosiy maqsadi budjet daromadlarini shakllantirish uslubiyotini nazariy va amaliy jihatdan tanqidiy o’rganish asosida, O’zbekistonda budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish masalalari buyicha tamoyillar va takliflar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagilar tadqiqotning vazifalari qilib belgilandi:

- Byudjet daromadlarini shakllantirishining nazariy va tashkiliy asoslarini o’rganish va aniqlashtirish;
- Mamlakatimizda budjetning solikli va soliqsiz daromadlarini shakllantirishning amaliy jihatlarini ko’rib chiqish va mavjud muammolarni o’rganish;
- Byudjet daromadlarini shakllantirish mexanizmi uslubiyotini takomillashtirish bo’yicha tadbirlar tizimini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining ob’ekti bo’lib O’zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromadlari, soliqlar va soliqsiz daromadlarni shakllantirishda yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi.

Ishning predmeti. Mamlakatimizda hozirgi sharoitida budjet daromadlarini

² “Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasidan. // “Xalq so’zi” gazetasi, 2013 yil 21 yanvar.

shakllanishi mexanizmining holatini o'rganish ishning predmeti hisoblanadi

Bitiruv malakaviy ish mavzusining nazariy va uslubiy asoslari bo'lib, iqtisodiy, xususan, soliq islohotlarini amalga oshirish bo'yicha Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan Qonunlar, Soliq kodeksi, Prezident I.A.Karimovning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning o'ziga xos yo'llari va iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida soliqlar vositasida iqtisodiyotni rivojlantirishni ta'minlash muammolari bayon qilib berilgan asarlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya Vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasining ko'rsatma va yo'riqnomalari, hamda iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan amalga oshirgan ilmiy tadqiqot ishlarining nazariy xulosalari xizmat qiladi. Tadqiqot mavzusini yoritishda barcha iqtisodiy hodisalar, soliq tizimidagi ahamiyatli jarayonlar muntazam o'zgarishda deb qaraldi va ular o'zaro bog'liqlikda olib o'rganildi. Ilmiy izlanishlarni olib borishda mantiqiy, ilmiy abstraktsiyalash, iqtisodiy statistik, induksiya va deduktsiya, ilmiy tavsiflash kabi usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishdagi asosiy xulosalar, natijalar va taklif etiluvchi tadbirlar iqtisodiyot modernizatsiyalashuvining hozirgi bosqichida davlat budjetining barqaror rivojlantirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ishda keltirilgan ilmiy xulosalar va natijalar budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini yanada chuqurroq o'rganuvchilar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi, soliqlarning real hayotda amal qilish mexanizmi mazmunini teranroq anglashga xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ish tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ushbu tarkib mavzu oldidagi muammolar va ularning echimlarini to'la ochib berish uchun mosdir.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti, nazariy asoslari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Birinchi bobda budget daromadlarining mohiyati, belgilari, funktsiyalari, tarkibi va tamoyillari, soliqlarning davlat budgetini shakllantirishdagi ahamiyati hamda mamlakat iqtisodiyotiga soliq yukining ta'sirining nazariy jihatlari haqida to'xtab o'tilgan.

Ikkinchi bobda Davlat budgeti daromadlarining asosiy moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlari va bu ko'rsatkichlarga soliqlar va soliqsiz daromadlarining ta'siri tahlil qilingan. Bundan tashqari hozirgi sharoitda soliqlar bo'yicha soliq bazasini shakllantirish, stavkalar belgilanishi va imtiyozlar berilishidagi muammolar ham atroflicha tahlil qilib berilgan.

Uchinchi bobda budget daromadlarining mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga ta'sir etish mexanizmini takomillashtirish va soliq yukini aniqlash usulubiyotini takomillashtirish masalalari haqida fikr muloxaza va takliflar tizimi ishlab chiqilgan.

1-BOB. DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRILISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Davlat budjeti daromadlarining mazmuni, mohiyati va shakllantirilishining tamoyillari

Budjet daromadlari davlatning markazlashtirilgan moliyaviy resurslari bir qismidan iborat bo'lib, davlatning funktsiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Qayd etilganlarni inobatga olgan holda budjet daromadlarining ma'nomazmunini ifodalovchi unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funktsiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi budjet daromadlari deyiladi.

Mamlakatlarning davlat tuzilishiga bog'liq ravishda budjet daromadlari quyidagicha farqlanadi:

- 1) markaziy (davlat) budjet(i) daromadlari;
- 2) unitar (yagona) davlatlardagi mahalliy budjetlar daromadlari.

Federativ (ittifoqchilik) tuzilish(i)ga ega bo'lgan davlatlarda budjet daromadlarining bu ikki ko'rinishi federatsiya a'zolari budjetlarining daromadlari bilan to'ldiriladi.

Byudjet daromadlari davlatning daromadlariga nisbatan torroq bo'lgan tushunchadir. Chunki davlat daromadlari hokimiyat barcha darajalari budjetlarining moliyaviy mablag'lari bilan birgalikda yana o'zining tarkibiga davlat nobudjet fondlari va barcha davlat sektoriga tegishli bo'lgan boshqa resurslarni ham qamrab oladi.

Byudjet daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromaddir. Agar davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy daromad etarli bo'lmasa, davlat bunday ehtiyojni qondirishga milliy boylikni jalb etishi mumkin. Bu erda milliy boylik deyilganda ma'lum bir davrda jamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan moddiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan tabiiy resurslar majmui nazarda tutilayapti.

Byudjet daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini budjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Byudjet daromadlarining moddiybuyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy (budjet) kategoriyaning namoyon bo'lish shakli budjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan budjetning daromadlari yaratilgan (ishlab chiqarilgan) yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromad) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda budjetda mablag'larni kontsentratsiya qilish (to'plash, yig'ish) miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonining quyidagi printsiplarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

sub'ektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga rioya etish (sharoit yaratish). Buning ma'nosi shundan iboratki, sub'ektlarga tegishli bo'lgan mablag'lar bir qismining budjetga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bu chegaradan oshib ketish sub'ektlarning mustaqilligini yuqotishga, kasodga uchrash hollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni

qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilishning susayishiga, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi;

sub'ektlarning hattiharakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman budjetga olinishi. Ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan turib olingan barcha daromadlar sub'ektlarning ixtiyoriga qoldirilmasdan davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu printsipting ta'siri ostiga sub'ektlar ma'muriyatining noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim;

ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni budjetga olish. Bu printsipt budjet daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hisobidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlatning manfaatlarini ta'minlaydi;

budjet mexanizmining rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash. Sub'ektlar ixtiyoridan mablag'larning budjetga olinishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirishi kerak. Bu erda qo'yilgan vazifa faqatgina budjet daromadlarini miqdoriy jihatdan ta'minlash emas, balki shu orqali korxonada faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko'rsatkichlariga to'lovlarning ta'sirchanligini kuchaytirishdir;

budjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish. Bu printsipt aholi mablag'lari hisobidan budjet daromadlarini shakllantirishda qo'llanilib, uning natijasida aholi daromadlarining bir qismi ular olgan daromadlarining darajasiga bog'liq ravishda budjetga o'tkaziladi.

Byudjet daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida budjetga undirilishi tufayli ularga nisbatan bu jarayonda quyidagi printsiplardan foydalaniladi:

soliqlarning budjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;

solliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanmog'i lozim;
solliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi;

solliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;


davlat uchun solliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim;

solliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak.

Byudjet daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, solliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli, ularni budjetga undirish metodlari va hokazolarga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.(1-rasm)

1-rasm

Davlat budjeti daromadlari manbalariga ko'ra bo'linishi³



Eng avvalo, budjet daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi:

- solikli daromadlar;
- soliqsiz daromadlar;
- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

³ Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma / TMI– T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007.200 b.

Byudjetning solikli daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'implari, mahalliy soliqlar va yig'implar, bojxona bojlari, boj yig'implari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Nosoliqli daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat mulkini foydalanishdan olingan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- budjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan haqli (to'lovli) xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- fuqarolikhuquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, jumladan, jarimalar, konfiskatsiyalar, kompensatsiyalar va davlat sub'ektlariga etkazilgan zararlarni tiklash bo'yicha olingan mablag'lar va majburiy undirilgan boshqa mablag'lar;
- moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (budjet ssudalari va budjet kreditlaridan tashqari);
- boshqa soliqsiz daromadlar.

Byudjet daromadlarining tarkibiga tushumlarning quyidagi ko'rinishlari hisobga olinishi mumkin:

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko'rinishda olinadigan mablag'lar;
- kredit muassasalaridagi hisob varaqlarida budjet mablag'larining qoldig'i bo'yicha foizlar ko'rinishida olinadigan mablag'lar;
- davlat mulkiga tegishli bo'lgan molmulkni garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag'lar;
- qaytarish va haq olish asosida boshqa budjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan budjet mablag'laridan foydalanganlik uchun haq;

- davlatga qisman tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aktsiyalar bo'yicha dividendlarga to'g'ri keladigan foyda ko'rinishidagi daromadlar;
- davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (soliklar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- davlatga tegishli bo'lgan molmulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa daromadlar.

Byudjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri budjet tizimida boshqa darajada turgan budjetdan dotatsiyalar, subventsiyalar va yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi budjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham budjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

Hozirgi amaliyotda davlat budjetining daromadlari quyidagi tartibda klassifikatsiya qilinayapti (2-rasm):

1. To'g'ri (bevosita) soliklar. Ularning tarkibiga yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar; yagona soliq to'lovidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bilan birgalikda) Davlat budjetiga ajratmalar; jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan qat'iy soliq kiradi;

2. Egri (bilvosita) soliklar. Bu soliklarning tarkibi qo'shilgan qiymat solig'i; aktsizlar; bojxona bojlari; jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi; transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqdan iborat;

3. Resurs to'lovlari va molmulk solig'i. Bu guruhga kiruvchi soliqlar va to'lovlar molmulk solig'i; er solig'i; er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni o'z ichiga oladi;

4. Ustama foydadan olinadigan soliq;

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq;

6. Boshqa daromadlar.


Shuningdek, yuridik nuqtainazardan, budjet daromadlari uch guruhga ajratilishi mumkin:

- davlat budjeti daromadlari;
- respublika budjeti daromadlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari.

Davlat budjeti daromadlariga "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 11-moddasiga muvofiq quyidagilar kiritiladi:⁴

- qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezidentyuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar;
- qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar.

⁴ "Byudjet tizimi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2000 yil. 14 dekabr. 11-modda

Davlat budjeti daromadlari klassifikatsiyasi⁵

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti quyidagi daromadlarni o'z tarkibiga oladi (yuqoridagi qonunning 15moddasi):⁶

⁵ Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma / TMI. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.200b.

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi va normativlar asosidagi umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezidentyuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Va nihoyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantirilishi mumkin ("Byudjet tizimi to'g'risida" gi qonunning 18moddasi):⁷

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'implar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

⁶ "Byudjet tizimi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2000 yil. 14 dekabr. 15-modda

⁷ "Byudjet tizimi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2000 yil. 14 dekabr. 18-modda

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki ob'ektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuqori budjetlardan beriladigan budjet dotatsiyalari, budjet subventsionalari va budjet ssudalari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

O'zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra budjet daromadlari ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan olinadigan daromadlar;
- aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko'ra budjet daromadlari quyidagi ko'rinishlarni olishi mumkin:

- nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;
- davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromadlar;
- aholidan olinadigan mablag'lar.

Budjet daromadlarining yuqorida sanab o'tilgan har bir guruhlarida daromadlarning manbalari, to'lovlarning turlari va hokazolar bo'yicha kichik guruhlarga bo'linishi ham mumkin. Masalan, davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromadlarga davlat korxona va tashkilotlarining to'lovlari, davlat mulkini sotishdan olinadigan daromadlar, davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan olinadigan daromadlar kiradi. Aholidan budjetga kelib tushadigan mablag'lar esa soliqlar va boshqa ixtiyoriy to'lovlardan iborat bo'lishi mumkin.

O'z navbatida, har bir kichik guruhlarga birlashtirilgan budjet daromadlari tushumlarning alohida turidan iborat. Masalan, davlat korxonalari tomonidan budjetga o'tkaziladigan daromadlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, daromad (foyda) solig'i va boshqalar kiradi. Shuningdek, davlat

mulkidan olinadigan daromadlar tarkibi bojxona daromadlaridan, egasiz va musodara qilingan molmulkni, talab qilib olinmagan yuklar va pochta jo'natmalarini, me'ros huquqi bo'yicha davlatga o'tgan molmulklarni realizatsiya qilishdan olingan tushumlardan iborat. Davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlarga davlat avtomobil inspeksiyalari tomonidan undiriladigan yig'imlar, tovar belgilarini qayd etganlik uchun yig'imlar, o'lchov asboblari davlat tekshiruvidan o'tkazilganligi uchun haq, sud va arbitraj organlari hamda notarial idoralari tomonidan aholiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan haq va boshqalar kiradi.

Byudjet daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda (shaklda) mobilizatsiya (jalb) qilinishi mumkin. Bunda daromadlarni majburiy shaklda mobilizatsiya (jalb) qilish hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Ixtiyoriy shakldagi to'lovlarga davlat obligatsiyalarini va pulbuyum lotereyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar kiradi. Byudjet daromadlarini shakllantirishdagi majburiylik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ma'lum bir mablag'lar belgilangan muddatlarda budjetga o'tkazilishi zarurligini anglatadi. U yoki bu to'lovni qonun tomonidan majburiy deb e'tirof etilishi to'lanmagan summalarning majburiy undirilishini ko'zda tutadi. Bu holat budjetning ijrosi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lib, mablag'larni to'liq va o'z vaqtida budjetga mobilizatsiya qilishga (jalb etishga) yo'naltirilgan.

Sub'ektlarning daromadlari budjet ixtiyoriga ikki xil metodlarni qo'llash evaziga olinishi mumkin:

- 1) solikli metodlar;
- 2) nosolikli metodlar.

Solikli metodlar uchun mablag'larning budjet foydasiga aniq belgilangan miqdorlarda va oldindan o'rnatilgan muddatlarda undirilishi xarakterlidir. Soliqlarning undirilishi mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsuloti va milliy daromadining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan bog'liq. Ular yordamida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi davlat ixtiyoriga o'tkaziladi. Soliqlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i,


aktsizlar, daromad (foyda) solig'i, er solig'i, molmulk solig'i va boshqa soliqlar kiradi.

Nosoliqli daromadlar davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlardan olinadigan to'lovlardir (3-rasm).

Byudjet daromadlarining tarkibiga tushumlarning quyidagi ko'rinishlari hisobga olinishi mumkin:

3- rasm

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari⁸




Davlat mulkiga aylanadigan va qaytarilishini talab etmaydigan mablag'lar ham budjetning daromadlari bo'lishi mumkin. Biroq ayrim to'lovlar davlatning ixtiyoriga vaqtinchalik foydanish uchun o'tkazilishi ham mumkin. Bunday holda davlat olingan mablag'larni sarf etsada, u bu mablag'larni belgilangan muddatlarda va to'liq ravishda qaytarishga majbur. Byudjet daromadlariga ular shartli ravishda, faqat shu yilning budjeti daromadlari nuqtainazaridan kiritilishi

⁸ Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma / TMI- T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.200 b.

mumkin. Byudjetlarning barcha daromadlari u yoki bu budjetlarga biriktirilishiga qarab ikkiga bo'linishi mumkin (4-rasm):

4- rasm

Byudjet daromadlarining tegishliligiga ko'ra guruhlanishi⁹



⁹ Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. «infoCOM.UZ». Toshkent- 2010.480b.

- 1) budjetning o'z daromadlari;
- 2) budjetning tartibga keltiruvchi daromadlari.

Mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda doimiy asosda tegishli budjetga to'liq yoki qisman biriktirilgan daromadlar budjetning o'z daromadlari deyiladi. Ularga tegishli budjetlarga biriktirilgan solikli va nosolikli daromadlar kiradi.

Navbatdagi moliyaviy yil (yoki uzoq muddatli davr asosida, odatda 3 yildan kam bo'lmagan holda) uchun boshqa darajadagi budjetlarga ajratmalar normativi o'rnatiladigan soliqlar va boshqa to'lovlar budjetning tartibga keltiruvchi daromadlari deyiladi.

Budjet daromadlarining deyarli barchasi sarflanish nuqtainazaridan oldindan mo'ljallangan maqsadlarga ega emas. Ular umumiy fondga tushiriladi va odatdagi moliyalashtirish tartibida foydalaniladi. Budjet daromadlarining faqat ba'zi birlarigina oldingan belgilangan maqsadlar uchun mo'ljallangan. Ularning tarkibiga ijtimoiy sug'urta badallarini kiritish mumkin.

Soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va majburiy ajratmalar alohida shakllari va turlarining yig'indisi budjet daromadlarining yagona tizimini shakllantiradi. Turli sub'ektlardan kelib tushadigan budjet daromadlari umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlab, birbiri bilan o'zaro bog'langandir.

1.2 Budjet daromadlari shakllaishida soliq mexanizmining ahamiyati

Boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatori soliq tizimini isloh qilishda ham bozorga o'tishning O'zbekiston modeliga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlari o'zgarishlarning izchilligi, evolyutsionligi namoyon bo'lmoqda. SHuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin uning soliq tizimi bozor iqtisodiyotining rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiq o'zgardi va 1998 yil 1 yanvarda kuchga kirgan Soliq kodeksida rasman o'z ifodasini topdi. Islohotlarning

keyingi bosqichida yuz bergan o'zgarishlarni hisobga olgan holda, Soliq kodeksi yangi tahrirda tasdiqlandi va 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirdi.

Ma'lumki, rivojlanayotgan mamlakatlarning soliq tizimlari xozirgi vaqtda o'zining rag'batlantiruvchi xususiyati bilan ajralib turadi. Ular jamiyat uchun foydali bo'lgan faoliyat turlarini yoki korxonalar faoliyatidagi ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuvlarni rag'batlantirish uchun soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga imtiyozlar beradilar. SHu tufayli soliqlar umum davlat muammolarini hal qilish maqsadida aholidan pul undirish vositasidan birinchi navbatda ustuvor tarmoqlar va yo'nalishlar rivojini ta'minlash uchun ayrim mintaqalarning iqtisodiy taraqqiyotini baravarlashtirishi hamda ijtimoiy himoyalash muammolarini hal qilish uchun xo'jalik faoliyatini tartibga soluvchi nozik vositaga aylanadi.


Hozirgi paytda O'zbekistonda tarkib topgan soliq solish tizimida bir qator jiddiy rag'batlantiruvchi imtiyozlar nazarda tutilgan bo'lib, o'zining muhim jihatlari bilan yuqorida tilga olingan jahon tamoyillariga mos keladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "2012 yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi".¹⁰

2012 yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida o'tgan yilda mamlakatimizda soliq yuki sezilarli darajada pasaytirilganiga qaramasdan, davlat budjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlar to'liq bajarilgani, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etganini ta'kidlab o'tdi (1-rasm).

¹⁰ "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2013 yil 21 yanvar.

Davlat budjeti ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi, foizda¹¹



Rasmdan ko'rinadiki, 2000-2004 yillar davomida mamlakatimiz davlat budjeti taqchilligini 1 foizdan 0,4 foizga pasaytirish, 2005-2008 yillar davomida esa davlat budjeti taqchilligiga barham berib, davlat budjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga oshirishga erishildi. Keyingi yillarda mazkur jarayonlarga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishiga qaramasdan, budjet profitsitini saqlab qolishga erishilmoqda. Xususan, juda murakkab kechgan 2012 yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan choratadbirlar natijasida budjet daromadlarining xarajatlardan ortish hajmi YaIMning 0,4 foizi darajasida bo'lishiga erishildi. Umuman olganda, davlat budjeti sohasidagi bunday natijalarni qo'lga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichmabosqich isloh etish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarni xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo'nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

¹¹ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

Soliq munosabatlarining bir maromda rivojlanishi, soliq qonunchiligi oldiga qo'yilgan bosh vazifa davlat ichki daromadlarini muvaffaqiyatli takomillashtirishiga erishishi uchun soliq qonunlarining majburiy va ixtiyoriy unsurlarini o'zida aks ettirmog'i kerak.

Ana shunday majburiy unsurlar qartoriga:

- a) soliq sub'ektlari:
- b) soliq ob'ektlari
- v) soliq predmeti:
- g) soliq solish miqyosi:
- d) soliq solish bazasini hisobga olish uslubi:
- ya) soliq to'lash kerak bo'lgan davr:
- j) soliq birligi:
- i) soliqni hisoblash chiqarish tartibi:
- k) hisobot davri:
- l) soliq to'lash muddatlari:
- m) soliq to'lash usuli va tartibi kabilar kiradi.

Bulardan tashqari, soliq qonunida quyidagi fakultativ unsurlarni ham nazarda tutilishi maqsadga muvofiq sanaladi:

soliqni ushlab qolish, noto'g'ri ushlab qolingan soliqni qaytarib berish tartibi:

soliq qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik:

soliq sohasidagi imtiyozlarni ko'zda tutuvchi qoidalar va boshqalar.

Soliq qonunida yuqoridagi unsurlarning bo'lmasligi yoki noaniq ifodalanishi soliq munosabatlarida chalkashliklarni yuzaga kelishiga, qonun oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq bajarilmasdan qolishiga, turli nizoli vaziyatlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Qonunda yo'l qo'yilgan ana shunday nuqsonlar ma'lum darajada soliq idoralari tomonidan chiqariladigan idoraviy yo'riqnomalarda bartaraf etiladi.

Soliq qonunchiligining eng muhim tamoyillaridan sanaluvchi soliq to'lovchining haqligi prezidentsiyasi tamoyili noaniq vaziyatlarda har doim soliq

to'lovchi doimo haq ekanligini, o'zi uchun foydali bo'lgan yo'lni tanlagani holda soliq to'lashi mumkinligini belgilaydi.

Soliq munosabatlari o'z ob'ektlari va sub'ektlari doirasiga ega.

Soliq ob'ekti deganda, soliq sub'ektida soliq to'lash majburiyatini paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi yuridik dalillar (harakat, hodisa, holat) ko'zda tutiladi (mahsulotlar sotish, ish yoki xizmat, mahsulotlar ishlab chiqarilishi molmulkni qo'lga kiritilishi va hokazo).

Soliq ob'ekti o'z mohiyati jihatidan soliq predmeti tushunchasiga yaqin, ammo soliq ob'ekti deganda, shaxsdagi muayyan daromadga bo'lgan huquq tushunilsa, soliq predmeti deganda esa ushbu daromadning o'zi ko'zda tutiladi: er solig'ining ob'ekti ma'lum er uchastkasiga bo'lgan huquq, soliq predmeti deganda esa er maydonining o'zi nazarda tutiladi. Yuqoridagilarga asosan aytish mumkin soliq buyumga, mulkka emas, balki unga bo'lgan huquqqa solinadi.

Soliq huquqi ob'ektlarni aniqlashda, soliq solinadigan baza va soliq miqyosi, soliq to'lash manbalari, soliq birligi, soliq stavkasi kabi tushunchalar mazmunini bilish lozim bo'ladi.¹²

Soliq solinadigan baza deganda, soliq predmeti sanaluvchi ashyo, daromad yoki boshqa boylikning soliqqa tortilishi lozim bo'lgan qismi ko'zda tutiladi. Daromad (foyda)dan soliq solishda bunday baza bo'lib, pul shaklidagi ko'rsatkich sanaladi. Boshqa xollarda esa bu baza mulk qiymati, hajmi kabilarda ko'rinishi mumkin.

Soliq solish miqyosi (masshtabi) deganda, soliq solishga asos qilib olinayotgan ko'rsatkichlar anglanadi. Masalan, engil avtomashina chet eldan O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirilayotganda uning sotib olingan paytdagi qiymati e'tiborga olingan holda boj olinsa, mulk solig'i undirilishi paytida uning dvigateli quvvatidan hisoblanib soliq olinadi. Ya'ni, turli vaziyatlarda turlicha soliq miqyoslari qo'llanilishi mumkin.

¹² Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.

Soliq to'lash manbalari deganda, soliq, to'lashga asos bo'ladigan mulkiy qiymatlar ko'zda tutiladi. Soliq to'lash manbai bo'lib olingan daromadlar va kapitallar hisoblanadi. Aslida kapital holida molmulkdan emas, balki undan olinadigan daromaddan soliq solinadi. Chunki, molmulkning muayyan sifatida olinishi oxiroqibatda uning tugab ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Makroiqtisodiy darajada yuridik va jismoniy shaxslarning turli daromadlari, molmulklari mamlakat milliy daromadini va ayni paytda soliq manbalarini tashkil etadi.

Soliq stavkasi deganda muayyan soliq solish birligiga nisbatan belgilanadigan soliq miqdori ko'zda tutiladi. Soliq stavkasi qat'iy, masalan, har bir kilovatt quvvatga 50 so'mdan yoki foizlarda (masalan har bir so'mdan 10 % ifodalanishi mumkin.

Bundan tashqari soliq stavkalari o'z mazmuniga ko'ra a) marjinal (miqdori qonunda bevosita ko'rsatib qo'yilgan): b) amaldagi (to'langan soliq summasining soliq bazasiga nisbatan): v) iqtisodiy (to'langan soliq summasining olingan barcha daromad summasiga nisbati) bo'lishi mumkin.

O'zbekistonning soliq tizimi mamlakat hududidagi to'lovchilar – huquqiy va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar majmuini ifoda etadi. Bundan tashqari, davlatning maqsadli pul fondlari ham mavjud, ularning daromad qismi maqsadli ajratmalar hisobidan tashkil topadi. Jamiyatdagi yaratilgan YaIM mazkur ajratmalar manbai bo'lib hisoblanadi. Uning hisobiga birlamchi daromadlarning tashkil topish bosqichida, ish haqiga bog'langan va mahsulot tannarxiga kiritiladigan sug'urta badallari tariflari bo'yicha ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan budjetdan tashqari, fondlarga to'lovlarning ma'lum qismi shakllantiriladi.

Soliqlarning miqdorlarini turli yo'llar bilan oshira borish davlatga va jamiyatga naf keltirmasligini ham anglab olishimiz kerak deb o'ylayman. Soliqlar daromadlarning bir qismigagina solinishi, ayni vaqtda xalq xo'jaligi va aholiga kerakli mahsulot hamda mollarni ko'proq va yaxshiroq ishlab chiqarishga intilayotgan tashkilotlarni va kishilarni har jihatdan rag'batlantirilishi ham lozim.

Aholi tomonidan to'lanadigan soliqlar ichida eng ko'p tarqalgani dunyoning qariyb barcha davlatlarida mavjud bo'lgan daromad solig'idir. Bu soliqqa doir milliy qonunlarda: to'lovchilar doirasi, soliq ob'ekti, soliq stavkasi, to'lov muddati va tartibi, ba'zi mamlakatlarda esa uning amal qilish hududlari ham belgilangan.

Soliqlar to'g'risidagi nazariyaga yasosan, soliq stavkasining cheksiz o'sishi budjetga tushadigan soliq tushumlarining cheksiz ko'payishiga olib kelmaydi. Soliq tushumlari o'lchamining o'sishi har doim soliq olinadigan bazasining o'sishi bilan proportsional bo'ladi, lekin har doim ham soliq stavkasi o'sishiga proportsional bo'lavermaydi. Soliq stavkasining oshishi ma'lum bir kritik nuqtaga etgach, budjetga tushadigan soliq tushumlarining hattoki kamayishiga olib keladi.

Bu soliq to'lovchilarning soliqdan qochishiga bo'lgan faol urinishlari, daromadlarni oshirishning yashirin yo'llarini izlashlari bilan izohlanadi. AQSH uchun daromad solig'ining bu kritik nuqtasi soliqning oxirgi stavkasi 33 % bo'lib hisoblanadi, bunda soliqning o'rtacha stavkasi daromadning bundan keyingi o'sishi qancha bo'lishdan qat'iy nazar 28% dan oshmaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, progressiv soliq olinmaydigan daromadlarning keyingi o'sishi qimmatli qog'ozlarni sotib olish banklarga qo'yilmalar qo'yish bilan bog'liq ularning daromadlaridan soliq olinadi.

II-BOB. O'ZBEKISTONDA BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIYATI

2.1 Budjet daromadlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili

Bugungi kunda davom etayotgan va tobora jiddiylashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi har bir mamlakat xukumati oldiga makroiqtisodiy barqarorlik va izchil o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan izchil iqtisodiy siyosatni yuritish vazifasini qo'ymoqda. Bunda samarali iqtisodiy o'sishini rag'batlantirishga yo'naltirilgan fiskal siyosat yuritish masalasi markaziy o'rinni egallamoqda. Shu bilan birga umumiy iqtisodiy munozaratni ta'minlashga yo'naltirilgan yahlit davlat siyosati bilan bog'liq muammolar ham aynan davlatning fiskal siyosati instrumentlariga bog'liq bo'lmoqda.¹³

Rivojlagan mamlakatlarda kuzatilayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning tobora keskinlashib borayotganiga qarmasdan, mamlakatimizda kuzatilayotgan barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishida izchil olib borilayotgan budjetsoliq siyosatining ahamiyati g'oyat yuksakdir. Buni o'z navbatida keyingi yillarda kuzatilayotgan budjet profitsiti, rejalashtirilgan davlat budjeti daromad ko'rsatkichlarining orttirib bajarilayotgani, davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi yanada rivojlantirilishi natijasida budjet xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanayotgani bilan izohlash mumkin (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami markazlashgan jamg'armalar tarkibida maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlarining salmog'i 2013 yilda 69,4 foizni tashkil etishi mo'ljallanmoqda. Bu o'z navbatida davlat fiskal siyosatida maqsadli fondlarsiz davlat budjeti markaziy o'ringa ega ekanini tasdiqlaydi.

¹³ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

Jamlanma budjet daromadlarining asosiy parametrlari¹⁴

Asosiy budjet ko'rsatkichlari	2012 yil	2013 yil	2013 yilda jamiga nisbatan foizda
Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlari	20614,1	25104,9	69,4
Maqsadli jamg'armalar daromadlari	10499,8	13571,9	32,7
Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi daromadlari	210,0	227,5	0,5
O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari	4747,6	2618,5	6,3
Jami markazlashgan jamg'armalar	36071,5	41522,8	100

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning ham ahamiyat yuqori bo'lmoqda. Bu hol ularning ular daromadlari shakllanish ko'lamida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, maqsadli jamg'armalar daromadlari 2012 yilda 10499,8 milliard so'mga rejalashtirilgan bo'lsa, 2013 yilda bu ko'rsatkich 13571,9 milliard so'mni tashkil etishi ko'zda tutilgan. Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalarning samarli ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan jamg'armaning daromadlari 2012 yilda 210 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yil uchun bu jamg'armaning daromadlari 227,5 milliard so'mga rejalashtirilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yirik va strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish bilan bog'liq islohotlarda Tiklanish va taraqqiyot

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari <http://cbu.uz/uzc/node/39959>

jamg'armasining hisssasi yuqori bo'lmoqda. Uning daromadlarining so'mdagi ekvivalenti 2013 yilda 2618,5 milliard so'mni tashkil etishi ko'zda tutilgan.

Agar maqsadli fondlarsiz davlat budjetining daromadlari 2012 yilda 20614, 1 milliard so'mni tashkil etishi ko'zda tutilgan bo'lsa, 2013 yilda bu ko'satkich 25104,9 milliard so'mni tashkil etishi ko'zda tutilgan. Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlarining tarkibiy tahlilidan ko'rinadiki, bilvosita soliqlardan budjetga rejalashtirilgan tushum 2012 yilda 11187,8 milliard so'm bo'lsa, 2013 yilda 13039,4 milliard so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Uning jami budjet daromadlaridagi salmog'i 51,9 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan. Bu holat shuni tasdiqlaydiki, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlarning fiskal ahamiyati yuqori bo'lmoqda.

2-jadval

Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlari to'g'risida ma'lumot¹⁵

Asosiy budjet ko'rsatkichlari	2012 yil	2013 yil	2013 yil jamiga nisbatan foizda
Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlari	20614,1	25104,9	100
SHu jumladan:			
Bevosita soliqlar	5196,4	6853,1	27,3
Bilvosita soliqlar	11187,8	13039,4	51,9
Resurs soliqlari	2746,4	3755,5	14,9
Boshqa daromadlar	1483,5	1456,9	5,8

Davlat budjeti daromadlarining shakllanish samaradorligi va barqarorligi amalga oshirilishi ko'zda tutilgan xarajatlar ijrosining moddiy asosini tashkil etadi.

O'tgan 2012 yilda ham mamlakatimizda soliq siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlari iqtisodiy siyosatning ustuvorligi, milliy boylikni tejash, milliy iqtisodiyotning o'sish darajasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olishga qaratilgan xalqaro kelishuvlar ijrosini, soliq to'lovchilarning ishchanlik kayfiyati, moliyaviy

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1887-sonli qarori.

resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash, milliy dasturlarni amalga oshirish hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo'nalishlari va tamoyillariga asoslangan holda olib borildi. Buning natijasida soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yuki iqtisodiy rivojlanishning darajasiga monand holda bosqichma-bosqich kamaytirib borildi, soliq qonunchiligi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda takomillashtirildi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini soliq tizimi orqali rag'batlantirish ortdi, real sektor korxonalarini, shuningdek, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalar faoliyati hamda milliy iqtisodiyotga to'g'ridanto'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb etilishini soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish jarayonlari kuchaytirildi, banklarning kapitallashuvini oshirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi roli oshirildi, soliq ma'murchiligi yanada takomillashtirilib, turli nazorat organlarining tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvi qisqartirildi, shuningdek, soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisobotlarini taqdim etish taomillari soddalashtirildi. Bu jarayonlarning umumiy samarasi sifatida bir tomondan soliq yuki darajasining o'tgan yilga nisbatan kamayishiga erishilgan bo'lsa, boshqa tomondan davlat budjetining profitsit bilan bajarilishi ta'minlandi.

O'tgan 2012 yilda fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi, ularning huquqiy himoyasini ta'minlash, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish, litsenziya va ruxsat berish tartibtaomillarini qisqartirish hamda soddalashtirish, hisobot tizimini va hisobotlarni taqdim etish tartibini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash borasida bir qator qonunlar, Prezidentimizning farmon va qarorlari qabul qilindi. Ushbu qonun va qonun osti hujjatlarining qabul qilinishi orqali soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukining kamayishiga erishildi. O'zbekistonda soliq yuki bundan o'n yil oldin YaIMga nisbatan (maqsadli jamg'armalarni hisobga olmagan holda) 27,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda esa 6,3 punktga kamaydi va YaIMga nisbatan 21,6 foizni tashkil etdi. 2013 yilda esa soliq yukining umumiy darajasini yana 0,3 punktga kamaytirish, ya'ni 21,3 foizga tushirish choratadbirlari ko'rilmoqda. Dunyoning rivojlangan va boshqa bir qator davlatlarida shu borada erishilgan

natijalarga e'tibor beradigan bo'lsak, yurtimizda olib borilayotgan soliq siyosati har tomonlama ma'qul va qulay siyosat ekanini anglash qiyin emas.

3-jadval

Dunyoning ayrim davlatlarida soliq yukining o'rtacha darajasi, foizda¹⁶

Davlatlar va uyushmalar nomi	Soliq yukining o'rtacha darajasi, foizda	O'zbekistondagi soliq yukining boshqa davlatlardagi holat bilan qiyosiy darajasi
AQSH	32,3	1,5 marta past
Evropa Ittifoqi davlatlari	42,6	2,0 marta past
Lotin Amerikasi davlatlari	47,2	2,2 marta past
IHTga a'zo davlatlar	35,9	1,7 marta past
Janubiy Osiyo davlatlari	40,2	1,9 marta past
SHarqiy Osiyo davlatlari	34,5	1,6 marta past
Markaziy Osiyo davlatlari	40,5	1,9 marta past
Rossiya Federatsiyasi	34,1	1,6 marta past
MDHga a'zo davlatlar	25,2	1,2 marta past
Dunyo davlatlari bo'yicha o'rtacha	44,7	2,1 marta past
O'zbekiston	21,6	x

3-jadvaldan ko'rinadiki, mamlakatimizda soliq yuki dunyo bo'yicha hamda Evropa Ittifoqi davlatlari, Lotin Amerikasi davlatlaridagi o'rtacha darajadan 2,1 marta past ko'rsatkichga ega. Shuningdek, MDHga a'zo davlatlardagi o'rtacha soliq yukining ham nisbatan past ekanida yurtimizdagi soliq yuki darajasining

¹⁶ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

ta'sirikatta. Chunki, Rossiyada bu ko'rsatkich 34,1 foizni, Belorussiyada 27,6 foizni, Ukrainada 25,3 foizni tashkil etadi¹⁷.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki davridan boshlab milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb etishni rag'batlantirishda soliq tizimidan samarali foydalanilmoqda. Bugungi kunda asosiy kapitalaga kiritilayotgan investitsiyalar yalpi ichki mahsulotning qariyb to'rtidan bir qismini tashkil etishida berilayotgan soliq imtiyozlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu boradagi ishlar 2012 yilda ham davom ettirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PF№4434-sonli Farmoniga ko'ra, xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSH dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, molmulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasi hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yor va qoidalarini, soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan taqdirda ham, davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida qo'llashga haqli ekanliklari belgilab qo'yildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar, imtiyoz va afzalliklar tizimi ko'lami yanada kengaytirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF№3594-sonli Farmonida ko'zda tutilgan soliq imtiyozlari avvallari 8 ta tarmoq faoliyatiga tegishli bo'lgan bo'lsa, ushbu Farmon bilan 2012 yilning ikkinchi choragidan boshlab, xorijiy

¹⁷ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

investitsiyalar uchun imtiyozlar 20 ta yo'nalishdagi iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarga tatbiq etiladigan bo'ldi.

Soliq imtiyozlaridan foydalanish uchun korxonalarga qo'yilgan talablarga ham bir qator o'zgartishlar kiritildi. Masalan, ilgari mazkur korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi ko'p bo'lgan mintaqalar hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish talab etilar edi. Endilikda esa, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan tashqari barcha hududlarda bunday korxonalarni tashkil etish mumkin. SHuningdek, imtiyozdan foydalanish uchun avval korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etishi lozim edi, endi bu ko'rsatkich 33 foiz etib belgilandi.

Bundan tashqari, ilgari mazkur imtiyozlarni qo'llash muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadni to'liq korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirish lozim edi, endilikda ana shu daromadning faqat 50 foizi ushbu maqsadga sarflanishi, qolgan qismi esa ixtiyoriy ravishda tasarruf etilishi mumkin.

Mamlakatimizda ishlab chiqaruvi korxonalarning eksport salohiyatini yanada oshirishni rag'batlantirish ko'لامي yanada oshirildi. Shu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 26 martdagi "Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga etkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ1731sonli Qarori qabul qilinib, unga muvofiq mikrofirma va kichik korxonalarga sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatliyadan o'tkazish, shuningdek, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish komplekslarini xarid qilishga yo'naltiriladigan mablag'lar uchun yangi texnologik uskunalarni sotib olishda nazarda tutilgan yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining eng muhim jihatlaridan biri soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukining yuridik va jismoniy shaxslar uchun bosqichmabosqich kamaytirib borish evaziga korxonalarning moddiy-texnik bazasini kuchaytirish bilan bir qatorda aholining real pul daromadlarining oshishi ta'minlab borilmoqda. (4-jadval)

4-jadval

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasining o'zgarish
dinamikasi¹⁸**

Yillar	Eng kam ish haqining 5 barobarigacha bo'lgan miqdorda	Eng kam ish haqining 5 barobaridan 10 barobarigacha bo'lgan miqdorda	Eng kam ish haqining 10 barobari va undan yuqori miqdorda
2009	12%	17%	22%
2010	11%	16%	22%
2011	10%	16%	22%
2012	9%	16%	22%
2013	8%	16%	22%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam ish haqining 5 barobarigacha bo'lgan miqdorda o'rnatilgan soliq stavkasi oxirgi to'rt yil davomida 1 punktdan kamaytirib kelinmoqda, natijada soliqlarning sotsiallasuvi oshib, kam daromadga ega bo'lgan aholining moliyaviy holati yaxshilanishi uchun zamin yaratilmoqda. 2013 yilga mo'ljallangan soliq siyosatiga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga pasaytirilishi jismoniy shaxslar ixtiyorida qariyb 186 milliard so'm, shu jumladan, eng kam ish haqining 5 barobaridan kam daromad oladigan 2,7 million kishiga qo'shimcha ravishda 120 milliard so'm daromad qolishi uchun imkon beradi.

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Korxonalarining foydasidan olinadigan soliq stavkasini O'zbekistondagi daraja bilan solishtiradigan bo'lsak, mamlakatimizda amalda bo'lgan foyda solig'i stavkasi (9 foiz) jadvalda keltirilgan 20 davlatga nisbatan bir necha marta kamligini ko'ramiz. SHuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i eng yuqori stavkalari bo'yicha ham mamlakatimizdagi soliq stavkasi (eng yuqori tabaqalashtirilgan 22 foiz) aksariyat davlatlarning soliq stavkasiga nisbatan ancha past. Dunyoning AQSH, Frantsiya, Gretsiya, Italiya kabi rivojlangan davlatlarida 2013 yilda jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkasi ancha oshirilgan bir sharoitda yurtimizda ushbu soliq turi bo'yicha soliq stavkasining eng quyi bosqichi 1 foizga kamaytirildi .

Tadbirkorlik sub'ektlarini moliy-akredit mexanizmlari orqali qo'llabqo'vvatlashning o'tgan 2012 yildagi muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ularning faoliyati bo'yicha soliq va boshqa sohadagi tekshiruvlar qisqartirilgan hamda ular uchun soliq va boshqa turdagi hisobotlarni topshirish tartibtaomillari soddalashtirilgani e'tirof etiladi.

Bu boradagi muhim tadbirlardan biri Prezidentimizning 2012 yil 16 iyuldagi «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartibtaomillarini tubdan qisqartirish choratadbirlari to'g'risida»gi PF№4453-sonli va 2012 yil 18 iyuldagi «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish choratadbirlari to'g'risida»gi PF№4455-sonli Farmonlari bilan soliq hisobotlari sonining qisqatirilgani, ularni topshirish davriyligi uzaytirilgani hamda turli xil yig'implarning bekor qilingani yoki kamaytirilganini ta'kidlash lozim.

Mazkur farmoni bilan joriy yilning 1 avgustidan boshlab litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasi (ularning umumiy miqdoriga nisbatan 20 foiz), shu jumladan, ularni bekor qilish va birlashtirish yo'li bilan qisqartirildi. Xususan, qimmatbaho metall va toshlardan zargarlik buyumlarini tayyorlash, audiovizual asarlarni, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarga moddiy jismlarni ishlab chiqarish, ichki va xalqaro havo yo'nalishlarida yo'lovchilar va yuk tashishni amalga oshirish va boshqa faoliyat turlarini litsenziyalash bekor qilindi.

SHu bilan birga, ayrim faoliyat turlari yagona litsenziyalanadigan faoliyat turiga birlashtirildi. Shuningdek, 2012 yilning 1 avgustidan boshlab 80 turdagi ruxsat berish tartibtaomillari (ularning umumiy miqdoriga nisbatan 26 foiz) bekor qilindi.

Quyidagilar bo'yicha imtiyozlar berildi:

- madaniy boyliklarni realizatsiya qilishda qatnashish uchun ruxsatnoma;
- sug'urtalovchilarni tugatish uchun ruxsatnoma;
- qimmatbaho qog'ozlar savdosini tashkil etish qoidalarini kelishish;
- tadbirkorlik sub'ektlarining muhr va shtamplarini tayyorlash uchun ruxsatnoma;
- tadbirkorlik sub'ektining muhr va shtamplarini yo'q qilish to'g'risidagi kvitantsiya;
- bojxona to'lovlari.

Shartli ravishda chiqarib yuborilgan tovarlar va transport vositalaridan, ana shu imtiyozlar nima munosabat bilan berilgan bo'lsa, ulardan faqat shu maqsadda yoki bojxona organining boshqa maqsadlarda bergan ruxsati bilan foydalanish va ularni tasarruf etish uchun ruxsatnomalar bekor qilindi va uning oqibatida tadbirkorlik sub'ektlarining ortiqcha vaqt sarflashiga barham berilgan bo'lsa, o'z navbatida ushbu hujjatlarni olishga sarflanadigan mabalag'lar tejaladigan bo'ldi.

Shuningdek, 2012 yilning 1 avgustidan boshlab noshirlik faoliyati, qurilish loyihalarining ekspertizasini o'tkazish faoliyati, arxitekturashaharsozlik hujjatlarini yaratish, magistral gaz quvurlari, neft quvurlari va neft mahsulotlari quvurlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyalar amal qilish muddati cheklanmagan holda berildi. Bunda ushbu faoliyat turlarini amalga oshirish uchun avval berilgan litsenziyalarning amal qilish muddati cheklanmagan deb belgilandi.

2012 yildagi soliq siyosatida xizmat ko'rsatish sohasidagi va oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirishga keng e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi PQ1754sonli qaroriga muvofiq, Moliyabank, maishiy va boshqa xizmat turlarini

ko'rsatadigan mikrofirma va kichik korxonalar 2017 yilning 1 yanvarigacha foyda solig'i va yagona soliq to'lovini to'lashdan ozod qilindi. SHuningdek, 2012 yilning ikkinchi choragidan boshlab, agar imtiyozlar berilgan xizmat turlarini ko'rsatishdan tushgan tushum umumiy tushum hajmida 80 va undan yuqori foizni tashkil etsa, foyda solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlar mikrofirma va kichik korxonalarning barcha daromadlariga tatbiq etildi. Oilaviy biznesni yuritishga keng yo'l ochib berish maqsadida oilaviy korxonalar o'zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'at buyumlarini sotishdan olingan tushum bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashdan 2014 yilning 1 yanvarigacha ozod qilindi. Xizmat turlari bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari quyidagi jadvalda keltirilgan (6-jadval).

Bundan tashqari, "Mustahkam oila yili" davlat dasturi mazmuniga muvofiq, qishloq joylardagi mahallalar hududida maishiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar (sartaroshlar, tikuvchilar, poyafzal, maishiy texnikani ta'mirlash bo'yicha usta va boshqalar) qat'iy belgilangan soliq to'lashdan 3 yil muddatga, qishloq joylarda yakka tartibda uyjoy qurilishi asosida barpo etilayotgan massivlarda maishiy xizmat ko'rsatadigan mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar yagona soliq to'lovi hamda qat'iy belgilangan soliq to'lovini to'lashdan 5 yil muddatga ozod etildi.

Ushbu berilgan soliq imtiyozlari o'z navbatida "Obod turmush yili"ning maqsad va vazifalariga mos kelib, hukumatimizning aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan yurtimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay imkoniyat va shartsharoitlar yaratish vazifasidan, shuningdek 2013 yil uchun mo'ljallangan soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonun hujjatlaridagi belgilab qo'yilgan soliq imtiyozlarini amalga joriy etilishi oqibatida tarmoqda korxonalar soni oshib bormoqda.

Bu esa iqtisodiyotimizning yanada barqarorligini ta'minlash va raqobatdoshligini oshirishga xizmat qiladigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

5-jadval

2017 yilning 1 yanvariga qadar foyda solig'i va yagona soliq to'lovi to'lash bo'yicha imtiyozlarga ega xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar¹⁹

Xizmat turlari		
Moliya bank xizmatlari	Maishiy xizmatlar	Boshqa xizmatlar
- lizing bo'yicha xizmatlar; - sug'urta bozoridagi professional ishtirokchilarning xizmatlari; - auditorlik xizmatlari; - buxgalterlik hisobini yuritish bo'yicha xizmatlar; - mikrokreditlash bo'yicha xizmatlar; - soliq maslahati xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilotlar	- charm buyumlari va poyafzal ta'mirlash xizmatlari; - soatsozlik va ta'mirlash xizmatlari; - maishiy elektron va elektr asboblari texnik xizmatlar ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	- veterinariya xizmatlari; - ta'lim sohasidagi, kompyuterda ishlashga o'qitish xizmatlari; - sanatoriyalar, bolalar sog'lomlashtirish muassasalari, bolalar sport seksiyalari va muassasalari xizmatlari; - nogironlar, qariyalar va bolalarni parvarish qilish bilan bog'liq ijtimoiy xizmatlar; - rieltorlik xizmatlari; - axborotresurs markazlari, axborotkutubxona markazlari va elektron ta'lim xizmatlari

Moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar alohida turkum hisoblanib o'ziga xos turlarga ajratilgan, maishiy va boshqa xizmatlar ham xuddi shu tartibda tarkiblashtirilgan.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida

2.2 Budjet solikli daromadlari shakllanishi amaliyoti

Miqdoriy jihatdan Davlat budjetining daromadlari yaratilgan yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromadda) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda Davlat budjetida mablag'larni kontsentratsiya qilish (to'plash, yig'ish) miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Milliy iqtisodiyotda qo'llanilayotgan Davlat budjeti daromadlari tizimining samaradorligi mablag'larning budjetga tushumini tashkil etishga bevosita bog'liq. Bu narsa o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- budjetga tegishli bo'lgan daromadlarni (solliqlar, to'lovlar, bojlar;
- ajratmalar va boshqalar) huquqiy jihatdan rasmiylashtirish;
- mablag'lar tushumining hajmi va muddatlarini aniqlash tartibi;
- daromadlarni (to'lovlarni) budjetga o'tkazish tartibi;
- budjetga daromadlarni to'lovchilarni hisobga olish;
- budjetga daromadlarni to'lovchilarning javobgarligi;
- budjetga daromadlarni o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlashga yo'naltirilgan choratadbirlar tizimi;
- budjetga daromadlarni undirishda soliq organlarining huquq va majburiyatlari.

Keltirilgan nazariy ma'lumotlarga asoslangan holda so'nggi yillarda davlat budjeti daromadlar tarkibini tahlilini ko'rib chiqamiz.

Davlat budjetining daromadlari asosan solliqlar vositasida shakllanadi. Yuqorida keltirilgan 6-jadvalda biz 2009-2012 yillar uchun, hamda 2013 yilga rejalashtirilgan davlat budjetining daromadlari tizimini shakllanishida solliqlarning

2009-2013 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari²⁰

Ko'rsatkichlar	2009 yil		2010 yil		2011 yil		2012 yil		2013 yil (prognoz)	
	mlrd.so'm	jami nisn, %da	mlrd.so'm	jami nisn, %da	mlrd.so'm	jami nisn, %da	mlrd.so'm	jami nisn, %da	mlrd.so'm	jami nisn, %da
I. Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz jami	10421,3	100	13116,3	100	16178,5	100	20614,1	100,0	25104,9	100,0
1.To'g'ri soliqlar	2769,1	26,6	3420,6	26,1	4238,7	26,2	5196,4	25,0	6583,1	26,2
1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	542,3	5,2	645,4	4,9	825,0	5,1	917,2	4,0	1239,0	4,9
1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar	222,4	2,1	297,0	2,2	527,4	3,3	703,5	3,0	817,3	3,2
1.3. Yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar	256,0	2,5	346,3	2,6	378,3	2,3	538,5	3,0	755,1	3,0
1.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1281,6	12,3	1535,0	11,7	1789,7	11,1	2372,7	12,0	2769,7	11,0
1.5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	108,6	1,1	139,1	1,1	187,5	1,1	218,1	1,0	342,1	1,3
1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	358,2	3,4	457,6	3,5	530,6	3,3	446,4	2,0	659,9	2,6
2. Egri soliqlar	5162,1	49,5	6973,8	53,1	8656,9	53,5	11187,8	54,0	13039,4	51,9
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i	3093,98	29,7	3987,98	30,4	5228,8	32,3	6784,5	33,0	7737,8	30,8
2.2. Aktsiz solig'i	1503,82	14,4	2191,09	16,7	2481,79	15,3	3115,5	15,0	3726,5	14,8
2.3. Bojxona boji	361,1	3,5	479,26	3,8	515,98	3,2	732,4	4,0	992,6	3,9
2.4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	203,2	1,9	315,46	2,4	430,3	2,6	555,4	3,0	582,5	2,3
3. Molmulk solig'i va resurs to'lovlari	1662,5	16,0	1974,1	15,1	2308,9	14,3	2746,4	13,0	3755,5	14,9
3.1. Molmulk solig'i	319,0	3,1	354,1	2,7	490,5	3,0	642,0	3,0	831,4	3,3
3.2. Er solig'i	275,1	2,7	303,8	2,3	346,86	2,1	446,0	2,0	646,3	2,5
3.3. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1024,8	9,8	1265,0	9,6	1409,7	8,7	1585,3	8,0	2180,1	8,7
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	43,5	0,4	51,16	0,4	61,79	0,4	73,1	0,1	97,7	0,4
4. Ustama foyda solig'i	238,9	2,3	25,95	0,2	142,3	0,8	250,0	2,0	294,5	1,2
5. Boshqa daromadlar	589,5	5,6	722,4	5,5	831,5	5,1	1233,5	6,0	1432,4	5,7

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024, 2009 yil 22 dekabrda №1245, 2010 yil 24 dekabr №1449-sonli, 2011 yil 30 dekabrda №1675 va 2012 yil 25 dekabrda №1887-sonli qarorlari asosida tayyorlandi

tutgan o'zni va ahamiyatini tahlil qilishimiz mumkin. jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ya'ni O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining asosiy salmog'i rivojlanayotgan davlatlar printsipli asosida egri soliqlarga to'g'ri kelib, ular jami davlat budjeti daromadlarining 2012 yilga qadar o'rtacha 5054% ni tashkil etgan, 2013 yilda esa bu soliqlardan tushumlar 51,9% ni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Egri soliqlardan eng yirigi bu qo'shilgan qiymat solig'i bo'lib, agar ushbu soliq 2009 yilda jami budjet daromadlarining 29,7 % ini, 2010 yilda 30,4%ni, 2011 yilda 32,3% ni, 2012 yilda esa 33,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 30,8% ni tashkil etishi rejalashtirilgan. Yana bir asosiy tushumga ega bo'lgan soliqlarimizdan biri bu aktsiz solig'i bo'lib, 2009 yilda 14,4%ni 2012 yilda 15,0% ni tashkil etgan. 2013 yilda 14,8% ni tashkil etishi rejalashtirilgan. Umuman 2013 yilgi budjet daromadlarining shakllanishida to'g'ri soliqlar va resurs soliqlarining jami budjet daromadlari tarkibidagi ulushi ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari jamlangan budjet daromadlari negizida bo'lib, umumiy asosda davlat budjetin va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari mujassamlashgan.

Budjet amaliyotida to'g'ri soliqlarning tarkibi va dinamikasi 7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2012 yilda 2009 yilga nisbatan yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'ining to'g'ri soliqlar umumiy hajmidagi salmog'i sezilarli darajada (0,62 foizli punktga) pasaygan.

Agar ushbu soliqni to'g'ri soliqlar tarkibida yuqori salmoqqa ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, u holda 2009-2012 yillar mobaynida to'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'ini pasayish tendentsiyasiga ega bo'lganligining asosiy sababi, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'ining to'g'ri soliqlar hajmidagi salmog'ini pasayishidir, degan xulosani shakllantirish mumkin. Buning ustiga, to'g'ri soliqlar tarkibida sezilarli salmoqni egallaydigan er solig'i bo'yicha pasayish tendentsiyasi ham tahlil qilingan davr mobaynida kuzatildi. Natijada ikkala soliq turining to'g'ri

solliqlarning umumiy hajmidagi salmog'i 2012 yilda 2009 yilga nisbatan 12,02 foizli punktga pasaydi. Ushbu davrda to'g'ri solliqlarning asosiy turlaridan biri

7-jadval

O'zbekiston Respublikasi budjet amaliyotida to'g'ri solliqlarning tarkibi va dinamikasi, (foizda)²¹

№	kursatkichlar	2009	2010	2011	2012	2012da 2009 yilga nisbatan o'zgarishi, punktda
1	Tug'ri(bevosii) soliklar	100	100	100	100	X
1	Yuridik shaxslarning foyda soligi	20,09	19,58	18,87	19,46	0,62
2	Savdo va umumiy ovkatlanishkorxonalari uchun yagona solik tulovi buyicha davlat budjetiga ajratma	20,09	8,03	8,68	12,44	7,64
3	Davlat budjetiga yagona solik tulovi buyicha ajratma, shu jumladan mikrofirma va kichik korxona uchun	8,09	9,24	8,92	8,92	0,82
4	Jismoniy shaxslarning daromadiga solik	49,42	46,28	42,22	42,22	7,19
5	Tadbirkorlik faoliyati bilan shugillanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning daromadiga katiy belgilangan solik	4,54	3,92	8,77	4,42	0,12
6	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun solik	9,78	12,93	12,51	12,51	2,72

bo'lgan savdo va umumiy ovkatlanishkorxonalari uchun yagona solik tulovi hajmidagi salmog'i 7,64 foizli punktga pasaygan. Bu esa, to'g'ri solliqlarning davlat budjeti daromatlari hajmidagi salmog'ining tahlil qilingan davr mobaynida 12,02 foizli punktga pasayishiga imkon berdi.

Tahlil natijalaridan ma'lumki, hozirgi vaqtda to'g'ri solliqlar ichida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni jismoniy shaxslarning daromadiga solik egallaydi. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur soliq ko'proq o'zining fiskallik funksiyasini

²¹ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

bajarmoqda. Bu holat soliq stavkalarini nisbatan yuqori ekanligida va eng past stavkalarini daromadlarning katta bo'lmagan qismiga nisbatan o'rnatilganligida namoyon bo'ladi. 2012 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng past stavkasi 10 foiz bo'lib, u eng kam ish haqining 5 barobarigacha miqdoridagi daromad solig'iga nisbatan qo'llanildi. 2012 yilda mazkur soliq bo'yicha eng yuqori soliq stavkasining darajasi 22 foizni tashkil etadi.

Jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadi soliq stavkalarini pasaytirish kontsepsiyasini davom ettirish va 3 pog'onali soliq stavkalaridan 2 pog'onali soliq stavkalariga o'tish hisoblanadi.

Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, Respublikamiz budjet amaliyotida to'g'ri soliqlarning umumiy hajmida salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i egallaydi. Mazkur soliqlarning salmog'ini pasayish tendentsiyasining yuzaga kelganligi asosan, soliq stavkalarini 2009-2012 yillar mobaynida sezilarli darajada pasaytirilganligi bilan izohlanadi. Masalan, 2009 yilda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining eng kam stavkasi 10 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 9 foizni tashkil etdi.

Respublikamizda to'g'ri soliqlarning umumiy hajmida sezilarli salmoqni egallaydigan soliq turlaridan biri davlat budjetiga yagona soliq tulovi buyicha ajratma, shu jumladan mikrofirma va kichik korxona olinadigan yagona soliq hisoblanadi. 2011 yilda mazkur soliqning to'g'ri soliqlar tarkibidagi salmog'i 8,92 foizni tashkil qildi. Shunisi xarakterliki, ushbu holat respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlar tomonidan yaratilgan mahsulotlarning YaIMdagi ulushini tahlil qilingan davr mobaynida sezilarli darajada o'sganligi bilan izohlanadi. Masalan, 2009 yilning 1 yanvar holatiga mazkur ko'rsatkich respublika bo'yicha 1,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilning 1 yanvar holatiga kelib uning darajasi 1,62 foizni tashkil qildi.

Egri (bilvosita) soliqlar budjet daromadining - 55 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda, uning tarkibida juda katta xissaga ega bo'lgan soliq turi qo'shilgan

qiymat solig'i bo'lib hisoblanadi, u jami budjet daromadiga nisbatan 25 foizgachani egallab kelmoqda.

Soliq siyosati maqsadlari va imkoniyatlari o'rtasidagi oqilona balansning mavjud bo'lishi budjetning barqaror faoliyat ko'rsatishini pirovardida esa uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirish va ta'minlash shartidir.

8-jadval

O'zbekiston Respublikasi budjet amaliyotida egri soliqlarning tarkibi va dinamikasi (foizda)²²

№	Ko'rsatkichlar	2009	2010	2011	2012	2012yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi, punktda
	Egri soliqlar (bilvosita soliqlar)	100	100	100	100	X
	QQS	56,03	59,93	57,18	60,40	4,36
	Aksiz soligi	32,78	29,13	31,41	28,66	4,11
	Bojxona bojlari	6,93	6,99	6,87	5,96	0,97
	Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	4,25	3,936	4,52	4,97	0,71

O'zbekiston Respublikasi soliq amaliyotida QQS egri soliqlarning asosiy turi sifatida muhim o'rin tutadi. 2009-2012 yillar mobaynida QQSning egri soliqlar hajmidagi salmog'ini yuqori darajasi saqlanib qolingani. 2012 yilda bu ko'rsatkich 2009 yilga nisbatan 4,36 punktga kutarilgan. (8-jadval). Lekin shuni e'tirof etish lozimki, ushbu soliqlar ichida aksiz solig'i bo'yicha tushumlar summasini 2012 yilda 2009 yilga nisbatan mutlaq summada va salmoq jihatdan pasayganligi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, aksiz solig'i egri soliqlarning tarkibida yuqori salmoqni egallaydi va hajmiga ko'ra QQSdan keyingi o'rinda turadi. Soliq siyosati maqsadlari va imkoniyatlari o'rtasidagi oqilona balansning mavjud

²² I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

bo'lishi budjetning barqaror faoliyat ko'rsatishini pirovardida esa uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirish va ta'minlash shartidir.

III-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.

3.1 Budjet daromadlarini shakllantirishda soliq yukini optimallashtirish masalalari

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda mustaqil soliq siyosati ishlab chiqildi, uning taktika va strategiyasi aniqlanib, izchil takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to'lovchilar va davlat budjeti manfaatlarini o'rtasida o'zaro uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan. Bunday uyg'unlikni ta'minlashning eng muhim vositalaridan biri soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat budjetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bilan birga, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etmasligiga erishishdan iborat. Keyingi yillardagi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarida soliq yukini muntazam kamaytirib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda, ushbu holat 2011 yilda ham kuzatildi va iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etdi.²³

Soliq yuki darajasi Yurtimizda izchillik bilan kamayib bormoqda. Agar ushbu ko'rsatkich 2002 yilda YaIMga nisbatan (maqsadli jamg'armalarni hisobga olmagan holda) 27,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilga kelib to'rt punktga (23,2 foiz), 2011 yilda esa 6 punktga kamaydi va YaIMga nisbatan 21,9 foizni tashkil etdi. Zero, "...Izchillik bilan amalga oshirilayotgan, birinchi navbatda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda."²⁴

²³ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

²⁴ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

Milliy bozorni mahalliy tovarlar (xizmat, ish)lar bilan to'ldirayotgan, eksportga mahsulot chiqarayotgan, ichki va tashqi investitsiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilayotgan, shuningdek, kichik biznes sub'ektlari shaklidagi soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarining kengaytirilishiga qaramasdan, yalpi ichki mahsulot va davlat budjetining daromadlar hajmida yil sayin o'sish ta'minlanmoqda. Soliq yukining kamayishi nafaqat umumiy hajmda, shuningdek, uning tarkibi bo'yicha ham sezilarli ravishda ko'zga tashlanmoqda.

Soliq yuki darajasining soliq turlari bo'yicha kamayish tendentsiyasini oxirgi o'n yil bo'yicha ko'radigan bo'lsak, 2000 yilda bevosita soliqlar bo'yicha 7,8 foizdan 2011 yilga kelib 5,8 foizga, bilvosita soliqlarga nisbatan soliq yuki 16 foizdan 10,6 foizga, shuningdek, resurs soliqlari bo'yicha ham kamayib 4,7 foizdan 3,9 foizgacha kamaygan. Respublikamizda soliq yukining kamayishi bu faqat ayrim soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarining kamaytirilishi, soliq imtiyozlarining kengaytirilishi evaziga emas, balki hukumatimiz tomonidan iqtisodiyotda keng qamrovli tarkibiy o'zgartirishlarni ta'minlaydigan aniq maqsadli davlat dasturlarini izchillik bilan amalga oshirish hisobidan soliq tushumlariga nisbatan yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasi o'rtasidagi yuqori farqning vujudga keltirilishi bilan izohlanadi.

Oxirgi uch yil davomida budjet daromadlari o'rtacha 3 trillion so'mga ko'payotgan bo'lsa, yalpi ichki mahsulot real hajmining o'sishi o'rtacha 20 trillion so'mni tashkil etmoqda, ya'ni o'rtada 6 barobardan ortiq farq bo'lib, yalpi ichki mahsulotning o'sishi hisobidan qo'shimcha soliq manbalari vujudga kelmoqda. Pirovardida soliq yuki vertikal xususiyatdan gorizantal yo'nalishga ega bo'ldi hamda uning soliq to'lovchilar faoliyatiga salbiy ta'siri kamayib bordi. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi hanuz davom etayotgan bir sharoitda aksariyat davlatlarda soliq yuki darajasi o'rtacha darajadan yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

Respublikamizda kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida turli xil moliyaviy vositalar orqali bu sohani qo'llabquvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida amal qilib kelmoqda. Kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rag'batlantirishda soliq tizimidan foydalanish o'z samarasini bermiqda.


Prezidentimiz ta’kidlaganidek “...2011 yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to’lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xo’jalik yurituvchi sub’ektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi...”²⁵

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda “O’zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to’g’risida”gi PQ1449-sonli qaroriga muvofiq, 2011 yilda iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to’lovining amaldagi 7 foizli stavkasi 1 foizga kamaytirilib, 6 foiz qilib belgilandi. Buning natijasida kichik biznes sub’ektlari ixtiyoriga davlat budjetiga to’lashi lozim bo’lgan 80 milliard 300 million so’mlik mablag’ ularning moliyaviy imkoniyatlarini kuchaytirish uchun qoldirildi, provardida esa ularda ishlab chiqarish hajmi o’sgan holda, yangi ish o’rinlarini yaratishda ushbu sub’ektlarning ulushi oshishi ta’minlandi. 2012 yilda ham kichik biznes sub’ektlari uchun soliq yuki darajasi kamaytirildi, ya’ni yagona soliq to’lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirildi.

Oxirgi yillarda kichik biznes sub’ektlari uchun yagona soliq to’lovi stavkasi yil sayin kamayib borishi kuzatilmoqda. 2012 yil uchun belgilangan soliq stavkasi 1996 yilga nisbatan, 7,6 marta, 2000 yilga nisbatan 6 marta, 2005 yilga nisbatan esa 3 marta qisqartirilgan.(6-rasm)

2012 yil Yurtboshimiz tomonidan “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan oilaviy xususiy tadbirkorlikni qo’llabquvvatlashda soliq tizimining roli yanada oshirildi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda “O’zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to’g’risida”gi PQ№1675-sonli qaroriga muvofiq, xizmat ko’rsatish sohasida, ayniqsa sartaroshlik va boshqa shu kabi maishiy xizmatlar sohasida faoliyatni ko’rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalari o’rtacha 2 barobar kamaytirildi.

²⁵ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: “O’qituvchi” NMIU. - 2013

Kichik biznes sub'ektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi²⁶

Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlarni ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari hududlar bo'yicha unifikatsiya qilindi va qat'iy yagona soliq stavkalari belgilandi. 2012 yil uchun ishlab chiqilgan soliq siyosatida kichik biznes sub'ektlariga nisbatan soliq imtiyozlari kengaytirildi, ayrimlarining muddati uzaytirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 2006 yil 17 apreldagi PQ-325sonli Qarori bilan mikrofirma va kichik korxonalarga berilgan soliq imtiyozlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy nooziqovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi 2009 yil 25 oktyabrdagi PQ-1050sonli Qarori bilan berilgan soliq va bojxona imtiyozlari 2014 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi.

O'tgan yillar davomida malakatimizda soliq yukini engillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha kichik biznes sub'ektlarini qo'llabquvvatlash maqsadida bir qator qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi. Jumladan, mamlakatimizdagi engil va oziqovqat sanoatining

²⁶ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturida ishtirok etayotgan korxonalar uchun keng ko'lamli qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi 2011 yil 24 avgustda qabul qilingan PF4354sonli Farmoniga muvofiq, 2011 yilning 1 oktyabridan boshlab soliqlar, bojxona bojlari va yig'implari, shuningdek, boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzgani sababli penya miqdori kechiktirilgan har bir kun uchun penyani hisoblash tartibi saqlangan holda, uning amaldagi miqdoriga nisbatan uchdan bir qismga kamaytirildi; yuridik shaxslarga tekshiruvlar natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, moliyaviy sanksiyalarni undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab olti oy mobaynida teng ulushlarda to'lash huquqi belgilandi.

3.2 Hozirgi sharoitda budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlarning iqtisodiyot taraqqiyotiga ta'sir etish mexanizmini takomillashtirish aytish lozimki, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida Davlat budjetining mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi. Byudjet daromadlarini shakllantirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatning iqtisodiy barqarorligi budjet daromadlarining darajasi bilan belgilanadi, uning asosiy manbalari soliqlar hisoblanadi. Mamlakatimizdagi islohotlarning hozirgi sharoitida asosiy e'tiborni budjet tizimini rivojlantirish va

soliq siyosatini samarali yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga e'tibor qaratish muhim vazifalardan biridir.

Mamlakatda pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi moliyaviy munosabatlarni o'zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funktsiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi budjet daromadlari deyiladi.

«Byudjet daromadlari» moliyaviy kategoriyaning namoyon bo'lish shakli budjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat. Davlat budjetining daromadlarining absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning Yalpi ichki mahsulotining umumiy hajmi, muayyan davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Davlat budjetida mablag'larni to'plash miqdori va ularni undirishning shakl va uslublari aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risidagi qonuniga asosan, budjet ehtiyojlarini hisobga olish va budjet daromadlari bilan moliyalashtirish muvofiqlashtiradi. Byudjet daromadlarining rejasini shakllantirish va mablag'larini xarajat qilish miqdori Davlat budjeti to'g'risidagi qarorlar bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi talablariga asosan soliqlar, yig'imlar, va majburiy to'lovlar har oyning yakunida tushadi, bu esa g'aznachilikda budjet xarajatlarida uzilish paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu bois, asosiy vazifa amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritish bilan budjet daromadlarini o'z vaqtida shakllantirishni takomillashtirish zarur.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida budjet tizimini rivojlantirish strategiyasi va g'aznachilik tizimini xalqaro tajribalarga bog'lagan holda Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush darajasini yaxshilash, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishdir. Soliq yukining optimal darajasi, tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiyot rivojlanishiga to'siq bo'lmasligi, soliqqa tortiladigan ob'ektlarni yashirishga majburiy ehtiyoj tug'dirmasligi, soliq to'lagandan keyin qolgan daromadlar korxonalar moliyaviy barqarorligini va aholining yaxshi turmush darajasini ta'minlashi kerak.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida soliq tizimini mos ravishda takomillashtirib borish ko'zlangan maqsadga erishish uchun zamin yaratadi. Soliq tizimi ayni paytda egiluvchan, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatlarini rivojlanishiga to'siq bo'luvchi omil bo'lmasligi kerak. Chunki, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yangidan yaratilayotgan qiymatni mulkdorlar va davlat o'rtasida taqsimlash soliqlar hamda ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham hamma vaqt soliq siyosatiga ehtiyotkorona yondashiladi.

Ma'lumki, soliq yuki davlat soliq siyosatining natijasi bo'lib, har qanday soliq tizimining sifat tavsifini ifodalaydi. Soliq tizimini optimallashtirishda korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq yukini pasaytirish birinchi navbatda, davlat xarajatlarini qisqartirish va ijtimoiy xizmatlarning to'lovlilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun soliq yukini pasaytirish ishlab chiqarish faoliyatini kuchaytirish imkoniyatini yuzaga keltiradi, tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy holatini mustahkamlaydi va investitsiya faoliyatini jonlantiradi. Natijada, bundan keyingi tub tarkibiy o'zgarishlar uchun ishlab chiqarish va texnologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda aytish kerakki, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda davlatimiz tomonidan soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi o'z samarasini ko'rsatmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning 2012 yil 25 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori mamlakatimiz soliq tizimi samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani, jumladan, ularga soliq imtiyozlari berilayotgani bunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotimizning barqaror faoliyat ko'rsatishi va o'sish sur'atlarini izchil ta'minlash imkonini bermiqda.

Xususan, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida soliq yukining ta'sirchanligi shubhasizdir. Soliq yuki og'irlashgan paytda tadbirkorlik faoliyati susayadi va aksincha, soliq yukining nisbatan engillashuvi tadbirkorlik faoliyatining faollashuviga olib keladi. Lekin soliq yukini engillashtirish ham o'ziga xos bo'lgan chegaralarga ega bo'lib, bu davlat budjeti xarajatlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun soliq yukini yanada engillashtirish emas, balki soliq yukini iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlashni yo'lga qo'yish va har tomonlama optimallashtirish darkor.

Tadbirkorlik sub'ektlariga berilayotgan bu kabi sharoitlar, xususiy tarmoqni rivojlantirishga qaratilayotgan katta e'tibor tufayli uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni va ulushi tobora ortib bormiqda. Xususan, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalaridan biri - bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirishdan iboratdir.

Bugungi kunda Respublikamiz Soliq siyosatida soliq yukini har tomonlama optimallashtirish, kichik biznesni rivojlantirish aholini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun yanada rag'batlantiradi. Ularning real daromadini oshirib, qulay mehnat bozorini shakllantiradi. Yani joriy etilgan qator imtiyozlar tufayli yuzaga keladigan manfaatdorlik yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi hamda ishchi kuchi resurslarini o'ziga jalb etadi.

Albatta, ertangi taraqqiyotimizni iqtisodiyotimizning eng istiqbolli tarmog'i bo'lgan xususiy sektorsiz tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, bugun yaratilayotgan huquqiy poydevor ularning salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, korxonalarni resurslardan samarali foydalanishlarini nazorat qilib turishga mo'ljallangan bu choratadbir korxonalarning rivojlanishi, mustaqil qarorlar qabul qilishlariga xalaqit bermoqda. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida subektlar faoliyati birinchi navbatda bozor qonunlari asosida boshqarilishi kerak. Qolaversa, erkin tadbirkorlar o'zlarining faoliyatlari natijalaridan o'zlari manfaatdordirlar, bordiyu ular faoliyati natijalari salbiy tomonlarga o'zgarib ketsa buning uchun ularning o'zlari mulkiy javobgardirlar.

Bizningcha, ushbu usulda korxonalar faoliyatini tartibga solishdan asta sekin voz kechilsa, yuridik shaxslar faoliyatini erkinlashtirish masalasida yana bir qadam tashlagan bo'linar edi. Bizning fikrimizcha bu masalani echimi juda oddiy bo'lgan usul. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar hamma yuridik shaxslarni umumiy tartibda soliq to'lashga o'tkazib yuridik shaxslardan imtiyozlar butunlay olib tashlanadi. Imtiyozlarning yo'q qilinishi hisobidan budjet uchun zarur bo'lgan daromadlar yig'iladi. Agar taklif etilayotgan tartibda soliq to'lansa «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida» gi Nizomga hojat ham qolmaydi. Chunki bunda soliq to'lovchi yuridik shaxsning turidan qat'iy nazar barcha xarajatlari chegiriladi va qayta qo'shiluvchi xarajat atamasi O'zbekiston qonunchiligidan chiqarib tashlanadi. Qayta qo'shiluvchi xarajatlar hisobidan undirilmay qolingan soliq summaları imtiyozlarni bekor qilish hisobidan, shunda ham budjet uchun zarur daromad, moliyaviy resurs yig'ib olinmasa soliq stavkasini 2530% qilib belgilanishi orqali yig'ilishi mumkin. Bunday xulosaga kelishga sabab 2002 yilda "Yuridik shaxslardan undiriluvchi daromad (foyda solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomda soliq to'lashdan ozod etiluvchi 24 turdagi yuridik shaxslar ruyxati berilgan edi, hozirgi kunga kelib shulardan 13 tasi uchun imtiyozlar bekor qilingan. Ya'ni bu imtiyozlar samarali tomoni juda kam bo'lib ko'pchilik hollarda korxonalarning soliq to'lashdan o'ochishlari uchun bir vosita edi, xolos.

Foyda (daromad) solig'i stavkasining pasaytirilishidagi ijobiy natijalarning axamiyatini pasaytirayotgan yana bir muammo sof foydadan undiriluvchi obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'idir. Gap shundaki,

foyda (daromad) solig'i stavkasining har bir foiz kamayishi yuqoridagi soliq bazasini kengaytirmoqda va natijada foyda solig'i progressiv o'zgarishlaridan kutilayotgan natijani qisman yo'qotmoqda. Jaxon soliqqa tortish amaliyotida hech davrda korxonaning sof foydasidan soliq undirilmagan.

Soliqlar davlat budjetiga davlat xarajatlarini, jumladan ijtimoiy xarajatlarini moliyalashtirish uchun yig'ilganligi bois soliq yuki ostida turgan korxonalar uchun yangi soliq joriy qilishning samarasi juda kam. Bu soliqning bazasi sof foyda ekan, unda soliq tamoyili yana buziladi. Chunki soliqlar hammadan olinishi kerak. Bu soliqda korxona foydaga ega bo'lmasa soliq to'lamaydi. Qilingan tahlillar va amaliyotdagi hisobchilar va korxona rahbarlari fikricha bu soliqni bekor qilish lozim.

Mol-mulk solig'i ham korxonalar faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunisi qiziqarliki, korxonalarda to'plangan asosiy vositalar tarkibi o'rganib chiqilganda shunga amin bo'lindiki, yuridik shaxslarning aksariyatida ishlab chiqarish va texnologik jarayonga ishtirok etuvchi mulk ulushi juda past. Asosiy vositalarning passiv qismi xisoblangan ofis binolari, xizmat mashinasi, anchadan buyon foydalanilmaydigan omborlar kabi turlari balansda turibdi. Bizningcha, mulkdan samarali foydalanishni boshqarish uchun ularni aktiv va passiv qismlariga ajratilish asosida aloxidaaloxida stavkalarda soliqqa tortilishi kerak.

Ish haqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy soliqning korxona moliyaviy faoliyatiga ta'siri juda kuchli. Ushbu soliq orqali korxona ish haqi fondi davlat tomonidan bilvosita boshqarilib turiladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan holatlardan ma'lumki, korxonalarada ish haqi fondiga nisbatan belgilangan soliq stavkasining yuqorilgi sababli ish haqini ko'paytirish imkoniyatlari juda past. SHu sababli, ayrim turdagi xarajatlarni hisobidagina ish haqi miqdorini oshirib kelmoqda. Buning hisobidan faqatgina davlat budjeti zarar ko'rayotganligini ko'rish mumkin. Bunday salbiy holatlar oldini olish maqsadida ijtimoiy yagona soliq miqdori ish haqi fondiga nisbatan 1012% qilib belgilansa maqsadga muvofiq bo'lar edi deb hisoblaymiz. SHu urda yana bir taklifni kiritib o'tishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Korxonada yuqori darajada ish haqlari berila boshlagach tajriba tariqasida Toshkent shahrida ish

haqi va nafaqalarni ishchilar uchun ochilgan shaxsiy xisobvaraqqga (omonat hisob varag'i emas) o'tkazib berilishi lozim. Bunda banklar bu pullarni hozirda keng qo'llanayotgan plastik kartochkalari orqali berishi ham mumkin bo'ladi. Aholiga ham xuddi korxonalar singari xisobvaraqq ochilishi munosabati bilan hozirda yig'ilishi juda qiyin bo'lgan jismoniy shaxslar soliqlari ya'ni er solig'i, mulk solig'i va boshqa to'lovlarni o'z vaqtida davlat budjeti va boshqa jamg'armalarga undirilishi osonlashar edi. Byudjet ijtimoiy yagona soliq stavkasini kamaytirish orqali yo'qotgan daromadni jismoniy shaxslardan undirilishi qiyin bo'lgan boshqa soliqlarni undirishdan olingan daromad hisobidan toplashi mumkin. Bunda hozirda muammo hisoblangan boqimandalar muammosi qanchadir darajadi o'z echimini topadi deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda soliq yukini aniqlash usubiyotini takomillashtirish hamda soliqqa tortish tizimida tub islohotlarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimiz rahbariyati tomonidan quyidagi masalalarni hal etish ustuvor vazifa sifatida qayd etildi.²⁷

Birinchidan korxonalarga nisbatan soliq yukini imkon qadar kamaytirish, bunda korxona o'z mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf eta olish salohiyatiga ega bo'lishini ta'minlash, bevosita soliqlarni kamaytirish va bilvosita soliqlarni hamda resurs to'lovlarini, ayniqsa, qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklar, er va suv zaxiralaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanishni optimallashtirishga alohida ahamiyat berish lozim.

Ikkinchidan ishlab chiqaruvchilardan budjet va budjetdan tashqari fondlar uchun undiriladigan soliqlar summasi yalpi ichki mahsulot va iqtisodiy rivojlanishning belgilangan sur'atlarida optimal ravishda muvofiqlashtirilishi kerak.

Uchinchidan soliqlarni birxillashtirish va sonini qisqartirish hamda ular bo'yicha hisobkitob qilish, to'lash mexanizmlarini soddalashtirish bo'yicha doimiy ish olib borish. Aytish joizki, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan soliq

²⁷ I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013. 3726.

to'lovchilarda ma'suliyat hissini, soliqlarning maqsadli yo'naltirilganligini anglash hissini shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa deb belgilandi. Soliq to'lovchilar nima uchun soliq to'layotganliklari, ularning miqdori nima sababdan oshgani yoki kamaytirilganligini yaxshi tushunishlari, soliqlar ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish orqali oxir o'ibat soliq to'lovchilarning o'ziga qaytishi va ularning manfaatlariga xizmat qilishini anglashlari lozim.

Soliq sohasidagi islohotlarni amalga oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, birinchi bosqichda soliq yukini kamaytirishga e'tibor qaratish budjet daromadlarining kamayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, soliq yukini kamaytirish borasidagi siyosatni budjetning xarajatlar qismini optimallashtirish choralari bilan qo'shib olib borilishini taqozo etadi. SHuni alohida ta'kidlash joizki, bizningcha optimal soliq yukini belgilash va uni amalda ushlab turishdan ikkala tomon ham ya'ni davlat va soliq to'lovchi ham bir xilda manfa'atdordir. Chunki optimal soliq yuki xo'jalik subektlari moliyaviyxo'jalik faoliyatini rag'batlantirsa, davlat budjeti uchun doimiy tushum bo'lishini ta'minlay oladi.

XULOSA

Davlat byudjetining muvozanatlanganligi muammolari iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan me'yorlashtirish uchun juda muxim ahamiyatga ega. Bu muammolar orasida soliqlar yordamida amalga oshadigan byudjetning daromad qismini shakllantirish aloxida ahamiyatga ega. Soliqlarning fiskal vazifasiga e'tiborni karatidigan bo'lsak, uning moxiyati davlat xarajatlarini qoplash uchun turli darajadagi byudjetlarga zaruriy mablag'lar tushumini ta'minlashdan iborat.

Umuman, byudjet daromadlari tarkibida solikli daromadlar o'rta muddatli istiqbolini belgilash muammolarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Biroq soliq-byudjet amaliyotining eng tortishuvli masalasi hozirgi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini zarur mablag'lar bilan ta'minlashdirki, u hududlar soliq tushumlari istiqbolini hisoblashning zarurligini, davlatning hududiy rivojlanish dasturlari vazifalarini o'zaro muvofiqlashtirishni hamda davlat moliyasini uzoq muddatli taxminlashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. Iqtisodiyotni boshqarishning hozirgi zamon amaliyoti aynan mahalliy soliq siyosati hamda joylarda soliq tushumlari istiqbolini oshirishning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlamoqda.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarimizni natijasida biz tomonimizdan qo'yidagi xulosalar tizimi ishlab chiqildi. Xulosa sifatida Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda e'tibor beriladigan asosiy yo'nalishlarni sanab o'tmoqchimiz:

- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining manbalari tarkibida to'g'ri soliqlarning salmog'ini egri soliqlarning salmog'iga nisbatan ustuvorligini ta'minlash zarur. Buning natijasida davlat byudjeti daromadlarining barqarorlik darajasi oshadi, egri soliqlarning baho mezanizmi orqali yuridik shaxslarning foydasiga nisbatan yuzaga keladigan salbiy ta'siriga barham beriladi.
- Egri soliqlarning iqtisodiy funktsiyasidan to'laqonli tarzda foydalanishni ta'minlash orqali to'g'ri soliqlardan olinadigan byudjet daromadlari summasini ko'paytirishga erishish. Buning uchun, birinchidan, soliq to'lovchilarning qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydigan oboroti summasini belgilab qo'yishi va ikkinchidan esa, soliq stavkalarini tabaqalashtirish lozim.

- Coliqlarni iqtisodiy holat va iqtisodiy siyosat yo'nalishlari bilan bog'liqligini kuchaytirish maqsadida, soliq, moliya, g'aznachilik idoralarning hamkorligini oshirish kerak.
- Respublikamiz soliq amaliyotida qo'llanilayotgan soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va asossiz belgilangan imtiyozlarni bekor qilish maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizcha, korxonalarning daromadi (foydasidan) olinadigan soliq bo'yicha, mol-mulk solig'i bo'yicha hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlari bo'yicha asossiz belgilangan bir qator imtiyozlar mavjud bo'lib, ular tadqiqotda aniq ko'rsatib berilgan. Mazkur imtiyozlarning bekor qilinishi, fikrimizcha, davlat byudjeti daromadlari summasini sezilarli darajada o'sishiga olib keladi.
- G'aznachilikda daromadlarni yig'ishning jahon tajribalariga asoslangan usullarini amaliyotga joriy qilish.
- Soliq idoralari tomonidan statistika idoralari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatish darajasini kuchaytirish, shuningdek, soliq va statistika idoralarida yuritilayotgan iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarining o'zaro mos kelishini ta'minlash borasida chora-tadbirlar ko'rish.
- Mamlakatdagi soliq yukini kamaytirish tendentsiyasini yanada chuqur tahlil qilish uchun alohida soliq turlari bo'yicha soliq yukini o'rganish lozim. soliq yukini optimallashtirish hamda soliqqa tortish tizimida tub islohotlarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimiz rahbariyati quyidagi masalalarni hal etishi lozim. Ya'ni:
- korxonalarga nisbatan soliq yukini imkon qadar kamaytirish, bunda korxona o'z mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf eta olish salohiyatiga ega bo'lishini ta'minlash, bevosita soliqlarni kamaytirish va bilvosita soliqlarni hamda resurs to'lovlarini, ayniqsa, qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklar, er va suv zaxiralaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanishni optimallashtirishga alohida ahamiyat berish lozim.

- ishlab chiqaruvchilardan budjet va budjetdan tashqari fondlar uchun undiriladigan soliqlar summasi yalpi ichki mahsulot va iqtisodiy rivojlanishning belgilangan sur'atlarida optimal ravishda muvofiqlashtirilishi kerak.

- soliqlarni birxillashtirish va sonini qisqartirish hamda ular bo'yicha hisobkitob qilish, to'lash mexanizmlarini soddalashtirish bo'yicha doimiy ish olib borish.

Ishlab chiqarish sektori zimmasidagi soliq yukini kamaytirish asosan korxonalar daromadini soliqqa tortish darajasini pasaytirish vositasida amalga oshirilmoqda.

Yuqorida biz tomonimizdan keltirilgan fikrmulohazalar kelgusida davlat budjeti daromadlarini shakllantirish mexanizmini yanada takomillashtirishga yordam beradi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2001.-39b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
2. "Budjeti tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 14.12.2000. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
3. "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida"»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 26.08.2004. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
4. "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori. PQ-594-son, 28.02.2007.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridi tizimini optimallashtirish va unga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-1475 – sonli Qarori, 07.02.2011 y.
6. "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-1449-son 24.12.2010.
7. "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-1675-son 30.12.2011.
8. "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-1887-son 25.12.2012.
9. "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 16.06.07. 148-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri).

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-son Qarori 26.04.2002 y.

11. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident I.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 30.01.2010.

12. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 28.01.2010.

13. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. - Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 13.11.2010.

14. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. – Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 07.12.2010.

15. Prezident I.Karimovning BMT Sammiti Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so'zi // 21.09.2010

16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

17. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Toshkent.: "O'zbekiston". 2011 y.

18. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. -T.: O'zbekiston. 2012 y.

19. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” – T.: O’zbekiston. 2013 y.

20. Karimov I.A. “Buyuk va muqaddassan, Mustaqil Vatan”. Ilmiy-ommabop risola. T.: “O’zbekiston” 2011 yil. 200 b.

II. Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar

21. Burxonov U. Davlat xaridi. T.:«infoCOM.UZ». 2010. 140b.

22. Haydarov M., Suvonqulov A., Sugirbayev B., Nurmatov B. Davlat budjeti ijrosining g’aznachilik tizimi. O’quv qo’llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. 235b.

23. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Budget nazorati va auditi: O’quv qo’llanma. T.: «infoCOM.UZ». 2009. 192b.

24. Karimov I.ning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari” nomli asarini o’rganish bo’yicha O’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2009. 120b.

25. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Budget daromadlari va xarajatlari. O’quv qo’llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. – 245b.

26. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Davlat budjeti. O’quv qo’llanma – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. 84 b.

27. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O’quv qo’llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2012. 207b.

28. Qosimova G., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O’quv qo’llanma. – T.: “Moliya”, 2012. 260 b.

29. Qosimova G.. Davlat budjeti ijrosining g’aznachilik tizimi. O’quv qo’llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2008. 372b.

30. Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta’minlash. O’quv qo’llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2007. 201 b

31. Srojiddinova Z. Budgetlararo munosabatlar. T.:«infoCOM.UZ». 2010. 156b.

32. Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. T.:«infoCOM.UZ». 2010. 480b.
33. Vahobov A.V., Abdullaev E.A., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. 100b.
34. Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008. 260 b.
35. Афанасьев М.П. Бюджет и бюджетная система (изд:2), Юрайт, 2011. 782 стр.
36. Вахабов А.В., Срожиддинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник. Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. 455 стр.
37. Нешиной А.С. Бюджетная система Российской Федерации (изд:10), Дашков и К. 2011. 336 стр.
38. Селезнев А.З. Бюджетная система Российской Федерации. Магистр. 2011. 383 стр.
39. Срожиддинова З. Бюджетная система Республики Узбекистан. Т.: «infoCOM.UZ». 2010. 480 стр.
40. Срожиддинова З. Межбюджетные отношения Т.: «infoCOM.UZ». 2010. 140 стр.
41. Ходжаев Р., Эгамбердиев А., Исаев О. Государственный бюджет. Учебное пособие.- Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008 г. 112 стр.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

42. “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachiligi to'g'risida Nizom”. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-son qaroriga Ilova.
43. “Davlat budjetining g'azna ijrosi Qoidalari”. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 4 avgustdagi 69-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 16 sentyabrda 2007-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

44. "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom". O'zR Adliya vazirligida 2157-raqam bilan ro'yxatga olingan. 19.11.2010.

45. "O'zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" O'zR Moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65- son buyrug'iga ilova. O'zR Adliya vazirligida 2146-raqam bilan ro'yxatga olingan. 19.11.2010.

46. "Budjet ijrosiga g'aznachilik tizimini joriy etishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2011 y.

47. Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risida NIZOM (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2009 y. PQ-1245-son Qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri)

48. O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasida boshlang'ich narxni pasaytirish yuzasidan elektron auksion savdolari tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 6 sentyabrdagi 260-son qaroriga ilova

IV. Internet saytlari:

www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)

www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti)

www.undp.uz (BMTTD rasmiy sayti)

www.lex.uz (Axborot ta'lim tarmog'i)

www.publicfinance.uz (O'zbekistonda budjet islohotlari loyihasi sayti)

www.statistics.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi rasmiy sayti)